

PHRASEOLOGISM IN DONNA TART'S "THE SECRET HISTORY"

**Munira Adizova,
Teacher, BSU**

Abstract: The article studies phraseological units and discusses the objects of phraseology. The views of scientists about phraseology were analyzed. Examples from analyzes of phraseological units used in the literary work of Donna Tart "The Secret History" are given.

Key words: phraseology, idioms, literary work, word combinations, phraseological combination, Donna Tart.

Kirish. Ingliz frazeologik birliklarining geografik ahamiyati juda katta, chunki chet tili bilan tanishish, uni o`rganish bilan birga yangi milliy madaniyatning ichiga kirib borib, uning ulkan ma`naviy boyligi tanishtiriladi. Frazeologizmlar va frazeologik kombinatsiyalar ingliz xalqining ko`p asrlilik tarixini, madaniyati, turmush tarzi va an`analarining o`ziga xosligini aks ettirishi bois frazeologik birliklar ingliz tilining informatsion birliklari hisoblanadi. Idiomatik iboralar xalq tomonidan yaratilgan bo`lib, oddiy xalqning qiziqishlari va kundalik faoliyati, turmush tarzi bilan chambarchas bog`liq.

Frazeologiyaning obyektini belgilashda turli xil farazlar mavjud. Frazeologiyaning obyektini faqat turg`un birikmalar tashkil qiladi. Frazeologiya fani frazeologik birliklarni ma`naviy struktural xususiyatlarini tadqiq qiluvchi, ularning til sistemasida paydo bo`lishi va nutqda ishlatish xususiyatlarini o`rganuvchi fan deb ta`riflangan. Frazeologik birlik esa bu o`z tarkibiga ko`ra turg`un til birligi bo`lib, ular bir butun ma`noga ega deya tariflangan[1].

M.N. Shanskiy va S.N. Ivanov "Современный русский язык" frazeologizmlar bir tomondan mustaqil so`z birikmalaridan ikkinchi tomondan esa alohida so`zlardan cheklash kerak deb yozgan va quyidagi g`oyalarni olg`a surganlar:

- Frazeologik birliklar bu ikki yoki undan ortiq urg`uli so`z xarakteriga ega bo`lgan, mazmuniga ko`ra butun va strukturasiga ko`ra turg`un til birligidir.

- Boshqa bir farazga asosan esa frazeologiyaning obykti sifatida ma'lum bir til istalgan so'z birikmasini frazeologiyaning obykti deb qabul qilish fikri olg'a surilgan.

Ko'rinadiki, frazeologiyaning obykti turlicha tushuniladi. Ba'zi tilshunoslar uning obyktiga turg'un so'z birliklarni kiritishsa, boshqalari esa istalgan so'z birikmasini frazeologiya fanining obykti sifatida qarashadi. Bunday qarashlar albatta izoh talab etadi. Lekin birinchi farazni olg'a suruvchilar orasida ham birlik yo'qligini oldindan ta'kidlab o'tish lozim. Ulardan birlari frazeologiyaning obykti faqatgina semantik jihatdan turg'un bo'lgan va bir so'zga teng bo'lgan hamda nominativ birlik deya so'z birikmalarinigina frazeologiyaning obykti sifatida qabul qilishadi[2]. Bu farazni A.M. Babkin, V.P. Jukov va boshqalar olg'a suradilar.

Tadqiqotchilar, odatda, frazeologiyaning o'ziga xos milliy xususiyatlarini yoritib berishga e'tibor qaratishadi. Aynan shuning uchun, frazeologik birliklar yunoncha "o'ziga xos" degan ma'noni anglatuvchi "idioma" atamasi bilan belgilanadi. Ingliz tilida ularni "idioma" deb ham atashadi. Ba'zi tilshunoslar dastlab frazeologik birliklarni boshqa tillarga tarjima qilib bo'lmasligini ta'kidlashadi.

Hozirgi zamon ingliz tilshunosligida frazeologiyaning o'rni, uning predmeti, tarixi, hozirgi davrdagi rivojlanish bosqichlari to'g'risida so'z yuritishdan avval frazeologik birlikning o'zi nima degan savolga javob berish lozim. Tarkibiy tuzilishi va ma'no jihatdan ajralmas birikmalar frazeologik birliklar deyiladi. Frazeologik birliklar nutqda erkin holda hosil bo'lmaydi, ular tilga tayyor holda kirib keladi. Frazeologik birliklar tarkibiga kiruvchi leksik komponentlar turg'un bo'lib, ular yagona umumiy ma'no bilan birlashadi. Frazeologik birliklarning komponentlarini o'rni almashtirish yoki boshqa so'z qo'yib o'zgartirish mumkin emas.

Donna Tarttning *The Secret History* asarini tahlil qilarkanmiz, undagi barcha iboralar kontekstual ravishda e'tiborga olinadi. Mazkur asarning o'ziga xosligi shundan iboratki, u nafaqat adabiy nuqtai nazardan diqqatga sazovor manba sifatida qaraladi, balki lingvistik jihatdan ham frazeologik birliklarni o'zida qamrab oluvchi boy kitob desak, anglashmagan bo'lamiz.

Asosiy qism. Xorijiy tilni o'rganuvchilar uchun gapda barcha so'zning ma'nosini bila turib gapning umumiy mazmunini tushunmay qolish holatlari uchrab turadi, chunki gap tarkibida ba'zan shunaqa so'z birikmalari kuzatiladiki, ular gap mazmunini to'g'ri anglashga xalaqit beradi. Bu kabi so'z birikmalari frazeologik yoki so'zlarning ko'chma ma'nosidagi bo'laklari bo'lib, ancha qiyinchiliklar tug'diradi. Masalan, quyidagi gapni misol tariqasida ko'rib chiqsak:

Would the person who took the step ladder yesterday kindly bring it back or further steps will be taken.[3]

Ushbu gapda *step(s)* so'zi ikki marta uchraydi, lekin ikkala vaziyatda ham har

xil ma'noni anglatadi. Birinchi marta ishlatilgan bu soʻz *ladder* soʻzi bilan birga kelib *zinapoyali narvon* ma'nosini anglatadi, keyingi *step* soʻzi fe'l bilan birga kelib ko'chma ma'noda ishlatilgan. Yuqoridagi shu kabi gaplar va ular ichidagi frazeologik soʻz birikmalari tadqiqot ishining diqqat markazida bo'ladi. Tadqiqotda avvalo, frazeologizmlarning matndagi o'rni va mazmuni bilan tanishib chiqib, so'ng ularning badiiy asar bo'yoqdorligidagi ta'siri, asar personajlari nutqida ishlatilishi, qo'llanilish tarziga e'tibor qaratilgan. Turli xilligini inobatga olib, frazeologizmlarni tilda tez-tez uchraydigan leksikologiyaga kiruvchi boy turkum deyish mumkin. Biroq har bir iborani alohida qarab chiqish jarayonida ularning aksariyati asar qahramonlarini tavsiflashga qaratilgani ma'lum bo'ldi. Asarda qo'llanilgan 596 idiomaning 527 tasi inson xarakterini ochib bersa, 69 tasi turli vaziyatlarni tasvirlab kelgan. Masalan, qahramonlardan birining belgi xususiyatlarini, uning fizik holatini ifodalashda *you're as light as a feather* idiomasiidan foydalanilgan. Asar qahramonlaridan biri Kamilla oyog'i jarohatlanib, ko'p qon yo'qota boshlaydi. Shunda Henri Kamillani ko'tarib olib, uni tezroq manzilga yetkazish va birinchi yordam ko'rsatishga harakat qiladi. Henrining usti qip-qizil qonga bo'yalganini ko'rib, Kamilla o'zini noqulay his etadi va vazni og'irligini aytib, uni yerga qo'yishni so'raydi. Shunda Henri shunday deb javob beradi:

He smiled at her. There was a slight chip in one of his front teeth I'd never noticed before; it gave his smile a very engaging quality. 'You're light as a feather,' he said. [4]

Keltirilgan misoldan Henrining oliyanobligini, qanchalik vazni og'ir bo'lmasin, Kamillani yupatib, seni hech qanday og'irliging yo'q, deb javob qaytaradi. Mazkur idioma lug'atda quyidagicha izohlangan: *be as light as a feather* -to be very light in weight. I could easily pick you up - *you're as light as a feather*. [5] Demak, inson ko'nglini ranjitmay, uning fizik holatini namoyon qilmay, mazkur idiomadan foydalanish mumkin. O'zbek tilida ham xuddi shu ma'noni anglatadigan "qushday yengil" iborasi mavjudki, bu ikki til birliklarini bir-biriga ekvivalent hisoblash maqsadga muvofiq.

Asarda inson his-tuyg'usini ifodalovchi idiomalar ham mahorat bilan qo'llanilgan: *driving me crazy*. Banni kun bo'yi Richard Peypenni vazifalarini qilishga xalaqit bergani, uning diqqatini tortgani, jahli chiqqani bois Richard shu idiomani qo'llaydi. "Undan jahlim chiqdi" deyish o'rniga "meni jinni qilayozdi" idiomasi asardagi ekspressivlikni oshirishga xizmat qilgan:

...he was nearly driving me crazy. Never once was I alone. It was impossible to write a letter or even to make a telephone call without Bunny lurking somewhere in the background, arrectis auribus, trying to listen in. [6]

Charls o'z zimmasiga keragidan ortiq yukni olishi, ya'ni uning juda ta'sirchanligini ochib berish uchun ishlatilgan *he's had to shoulder more than his share of the burden* idiomani asardan keltirilgan parcha yordamida asoslaymiz:

When he spoke, his voice was crackly and distant. 'Let's just say that for a

while things were much more touch-and-go than you realized. Charles has had a hard time. It's no one's fault really but he's had to shoulder more than his share of the burden. [7]

Asar narratologiyasida, ya'ni voqealar rivoji davomida asar qahramonlarining o'zaro so'zlashuvida, dialoglarida, monologlarida yoki I shaxs nomidan hikoya qilinayotganda idiomalarning ko'p marotaba ishlatilishi kuzatiladi. Miqdor jihatidan olib qaralganda, dialoglarda 293 ta idioma qo'llanilib, 49 foizni tashkil etsa, 303 ta idioma asarni hikoya qiluvchi I shaxs tomonidan ishlatilib, 51 foizni tashkil etishi kuzatiladi. Masalan, *shake you down pretty good* hamda *don't keep an eye on them.* Dialogda Richard Peypenning doctor Ronald dan mashinasini tuzatish uchun pul so'ragan dialogida qo'llanilgan.

Shake sb down idiomasi lug'atda *to get money from someone by using threats or trick, keep your /an eye on sth/sb* esa *to watch or look after something or someone* [8] deya izohlanib, Ronald Richardga mashinani tuzatishga olib borganida, ustalardan ehtiyot bo'lishini, ishlariga ko'z-quloq bo'lib turmasa, uni laqillatib ko'p pul olishlari mumkinligini tushuntiradi. Yozuvchi, shu o'rinda, ba'zi insonlarda kuzatiladigan ochko'zlik, yolg'onchilik xususiyatlarini yanada aniqroq ko'rsatib berishga uringan.

Ayrim holatlarda bir gapning o'zida bir nechta ibora va frazeologik birliklar ishlatilganining guvohi bo'lish mumkin. Ular gapda o'zaro birlashib, matndagi ma'noni yanada kuchaytirish xususiyatiga ega bo'lgan. Fikrlarimizni misollar yordamida asoslab berishga urinib ko'ramiz:

'You know, there's nothing I hate like I hate an officious fag,' said Bunny pleasantly. 'You ask me, I think they ought to round them all up and burn them at the stake.' [9]

Mazkur ibora va frazeologik birlikning mazmunini yaxshiroq anglash maqsadida lug'atga murojaat qilib, *round sb up – to find and bring together a group of animals or people*, ya'ni bir guruh hayvonlar yoki insonlarni bir yerga keltirishini, *burn sb at the stake – to kill someone by tying them to a post and burning them*, ya'ni kimnidir bog'lab qo'yib yo kuydirib o'ldirish harakatini ifodalashi aniqlandi.

Xulosa. Ko'rinib turibdiki, qahramonlar orasida Charls xatti-harakatlarining boshqachaligi, boshqalarga nisbatan ko'proq fikr-mulohaza yuritadigan shaxs ekanligi ta'kidlangan.

Xulosa qilib aytganda, frazeologizmlar oddiy so'zlashuvdan farq qilib, badiiy matndan qo'shimcha ma'lumot olish imkonini yaratgan. Natijada, kitobxon asar qahramonlarining har biri his etgan tuyg'ular, boshidan kechayotgan o'y-fikrlaridan xabar topgan. Frazeologik birliklar mavhum hodisalarni aniq qilib tasvirlashda, qahramonlarining ichki dunyosini, psixik holatini so'z bilan ko'rsatib berishda foydalanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Шанский Н.М., Иванов В.В. Современный русский язык, Часть 1 – М.: Изд-во Просвещение, 1987 – 224 с.
2. Жуков В.П. Фразеологизм и слово (на материале русского языка). - Л., 1967. - С. 5; Бабкин А.М. Лексикологическая разработка. - Л., 1968. - С. 26.
3. Thomas F. Shubnell. Greatest Jokes of the Century Book 3. – Createspace Independent Publishing. 2008. p.104
4. Donna Tartt. The Secret History. – UK.: Vintage, 1992. – p.108.
5. Cambridge International Dictionary of Idioms. - Cambridge University Press, 1998. – p.228.
6. Donna Tartt. The Secret History. – UK.: Vintage, 1992. – p.216.
7. Donna Tartt. The Secret History. – UK.: Vintage, 1992. – p.501.
8. Encyclopedia.com
9. www.CambridgeAdvancedLearner'sDictionary
10. Файзуллоев О. М. ОБ ОСОБЕННОСТЯХ ИНТЕРПРЕТАЦИИ
УЗБЕКСКИХ СКАЗОК //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 12. – С.
212-215.
11. Fayzullayev M.B, Fayzulloyev O.M, & Saidova M.M. (2021). Images of animals
in the Legends of Haji Nasretidin. Middle European Scientific Bulletin, 10(1).
<https://doi.org/10.47494/mesb.2021.10.328>